



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
<i>Po'latova Sitara Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanov Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	

YOSH SPORTCHILARNI TARBIYALASH VA HUQUQIY HIMOYA QILISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qaroqalpoq filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish vazifalari yoritilgan. Shuningdek, yosh sportchilarni tarbiyalashda pedagogik ta'sir ko'rsatish omillarining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yosh sportchilarni tarbiyalash, normativ-huquqiy baza, huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish, psixologik va pedagogik xususiyatlar, jismoniy rivojlanish.

Abstract: The article highlights the tasks of improving the pedagogical mechanism of education and legal protection of young athletes. It also examines the specific features of the factors of pedagogical influence in the upbringing of young athletes.

Key words: upbringing of young athletes, regulatory framework, improvement of the pedagogical mechanism of legal protection, psychological and pedagogical features, physical development.

Аннотация: В статье освещены задачи совершенствования педагогического механизма воспитания и правовой защиты юных спортсменов. Также рассматриваются особенности факторов педагогического воздействия в процессе воспитания юных спортсменов.

Ключевые слова: воспитание юных спортсменов, нормативно-правовая база, совершенствование педагогического механизма правовой защиты, психолого-педагогические особенности, физическое развитие.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy sport amaliyotida raqamlashtirilgan innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, aholi o'rtasida ommaviy sportni targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan aholini muntazam shug'ullanish darajasini kengaytirish, bu orqali aholi salomatligini mustahkamlash hamda ularning o'rtacha umr ko'rish yoshini oshirib borish asosiy vazifalarimizdan biridir. Mazkur muammolarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish sohadagi muammolarning ilmiy yechimini aniqlashda dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlarida ilm-fan va sportni rivojlantirishda yosh sportchilarni kamol toptirish, ularga munosib tayyorgarlik ko'rish, ularni huquqiy himoya qilish sog'lom, axloqiy va mas'uliyatli sport muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh sportchilarni sifatli tayyorlash va ularning huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani sport iste'dodlarini kamol toptirish hamda bo'lajak sportchi avlodni shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish ushbu jarayonni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish zaruriyatini belgilaydi.

Respublikamizda yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishning hozirgi bosqichida yosh sportchilarni tayyorlash masalalari alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Yosh sportchilarni tarbiyalash va ularni huquqiy himoya qilish pedagogik, huquqiy hamda siyosiy ta'lim-tarbiya sohalarining takomiliga bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, yosh sportchilarni tarbiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun rivojlanishning yosh xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasini, tanlangan sport turi xususiyatlarini, jismoniy sifatlar rivojining o'ziga xos jihatlarini, harakat ko'nikma va malakalarining shakllanishini hisobga olish zarur.

Bugungi kunda yosh sportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonini ta'minlash jahon tajribasida ularni barkamol etib voyaga yetkazish, sportchilarni Olimpiya o'yinlari va boshqa xalqaro sport musobaqalariga tayyorlashning aniq maqsadga yo'nal-



tirilgan dasturlari va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan bog'liq bo'lib, mamlakatimizda yoshlar sportiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishning vazifalari: yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va omillarini tahlil qilish; yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish; yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish hamda sportchilarning huquqiy himoyasini ta'lim-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish; o'rganilgan manbalar va to'plangan tajribalar asosida yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yosh sportchilarning huquqiy himoyasiga kelsak, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (2015-y.) 12-moddasida yosh sportchilar sog'lig'ini saqlash, mehnat xavfsizligi hamda sportda diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik kafolatlari belgilangan. Bu esa pedagogik jarayonning huquqiy asosini mustahkamlaydi. Pedagogik mexanizmning ijtimoiy-psixologik tarkibi quyidagi elementlardan iborat:

- ijtimoiy element: sportchi va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy aloqa, oila va jamoa qo'llab-quvvatlovi;
- psixologik element: motivatsiya, o'ziga ishonch, stressga bardoshlilik;
- pedagogik element: ta'lim jarayonining mazmuni, metodik yondashuv, axloqiy tarbiya.

Ushbu omillarning uyg'un ishlashi yosh sportchilarni nafaqat natijaga yo'naltiradi, balki ularni ijtimoiy mas'uliyatli va huquqiy madaniyatga ega shaxs sifatida kamolga yetkazadi.

Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish jarayonining mazmunini to'la anglash uchun, avvalo, uning ijtimoiy, psixologik va pedagogik xususiyatlarini, shuningdek, bu sohada ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Zero, sport faoliyati nafaqat jismoniy rivojlanish, balki shaxs kamolotining ma'naviy, aqliy va huquqiy jihatdan yetishishi uchun samarali imkoniyat yaratadi.

Yosh sportchilar jamiyatda alohida ijtimoiy guruh sifatida shakllanib boradi. Ular sport tizimining maxsus qoidalari, intizomi va ichki madaniyatini o'zlashtiradi, bu esa umumiy jamiyatning ijtimoiy normalari bilan uyg'unlashgan holda rivojlanadi. Yosh sportchilarning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini jamoada ishlay olish, birgalikda mas'uliyatni his qilish, o'zaro yordam berish kabi sifatlarda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, yosh sportchilar muayyan ijtimoiy xatarlarga ham duch kelishi mumkin, jumladan: musobaqalarda yoki mashg'ulotlarda qonunchilik va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari; o'z huquqlari va majburiyatlarini yetarlicha bilmaslik oqibatida suiiste'mol qurboniga aylanish; jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik holatlari. Shu sababdan, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish ijtimoiy zaruratga aylanib, sog'lom muhitda rivojlanishi uchun huquqiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yosh sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishida yosh psixologiyasi muhim o'rin tutadi. 14-18 yoshli sportchilarda emotsional labillik (tez g'azablanish, kayfiyat o'zgaruvchanligi), mustaqillikka intilish, avtoritetlarga tanqidiy munosabat (murabbiy, trener, mashhur sportchilar), o'z "Men"ini anglash jarayoni yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bunday psixologik holatlarda tarbiya mexanizmini takomillashtirishda interfaol va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yosh sportchilarning huquqiy ongida "huquqiy immunitet" shakllantirish uchun ularning hayotiy tajribasiga yaqin misollar, qonunchilik bilan bog'liq rivojlantiruvchi mashqlar va muloqot texnologiyalaridan foydalaniladi.

Yosh sportchilarni tarbiyalashda pedagogik ta'sir ko'rsatish omillari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jismoniy mashg'ulotlar va sport ta'limi jarayonida huquqiy hamda axloqiy tarbiya integratsiya qilinishi lozim, sport pedagogikasida rag'bat va motivatsiya asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, yosh shaxsning sport natijalariga erishishi bilan uning huquqiy madaniyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bundan tashqari, yosh sportchilarda huquqiy ong shakllanishi ko'p jihatdan pedagogik muhitning quvvati va tarbiyachining shaxsiy namunasi bilan belgilanadi. Shu bois sport maktablari, akademik litseylar yoki klublarda muloqot madaniyatini shakllantirish, adolatli baholash hamda huquqiy normalarga rioya qilish bilan bog'liq talablar alohida pedagogik shart sifatida qaralishi zarur.

Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar oilaviy omillar, ya'ni ota-ona huquqiy madaniyati va oilada qonunchilikka hurmat, jamiyat va muhit omillari, xususan sport maktabining ichki qoidalari, murabbiyning shaxsiy namunasi va tengdoshlar ta'siri, qonunchilik-huquqiy baza, ya'ni yoshlar huquqlarini himoya qiluvchi milliy va xalqaro qonunlar, standartlar hamda protokollar, madaniy-an'anaviy omillar, ya'ni milliy sport an'analaridagi odob-axloq me'yorlari va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek shaxsiy-psixologik omillar, ya'ni yosh shaxsning individual xususiyatlari, mas'uliyat hissi va refleksiya qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Ushbu omillar har bir sportchi shaxs rivojlanish jarayonida o'zaro ta'sirlashib, ma'naviy-huquqiy immunitet shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi yoki aksincha, muayyan to'siqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois pedagogik mexanizmni takomillashtirishda mazkur omillarni tizimli tahlil qilish va ularning ta'sir darajasini hisobga olish muhim vazifa hisoblanadi. So'nggi yillarda yosh sportchilarning huquqiy himoyasida zamonaviy yondashuvlar keng qo'llanilmoqda.

Xususan, innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali huquqiy ongni yuksaltirish samaradorligi ortmoqda, jumladan elektron simulyatsiyalar (virtual sud muhokamasi yoki shartli huquqiy vaziyatlarni yechish), keys-tahlil mashg'ulotlari, multimedia targ'ibot materiallari hamda onlayn huquqiy bilimlar portallaridan foydalanilmoqda. Shuningdek, yosh sportchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi, bunda mas'uliyat hissini kuchaytirish, konfliktlarni huquqiy yo'l bilan hal etish ko'nikmasini rivojlantirish va qonunchilikda belgilangan o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini mustahkamlash asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Umuman olganda, yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish ijtimoiy, psixologik va pedagogik xususiyatlarni chuqur o'rganishni hamda ta'sir etuvchi omillarni maqsadli tahlil qilishni talab etadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar sportchilar shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi, ularda huquqiy ong, huquqiy mas'uliyat va qonunlarga hurmat tuyg'usini shakllantiradi hamda sport muhitida ijtimoiy adolat va huquqiy himoya kafolatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sport fanining muhim muammolaridan biri – sport muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritish va saqlashda samarali omillarni aniqlashdir. Sport muvaffaqiyati faol o'quv-mashg'ulot jarayoni hamda yuqori darajadagi sport ko'rsatkichlariga erishish uchun zarur ko'nikmalarni takomillashtirish bo'yicha muntazam va izchil mashqlar natijasida qo'lga kiritiladi. Darhaqiqat, sportda optimal ko'rsatkichlarga texnik (texnik va taktik), jismoniy (kuch, tezlik va boshqalar) hamda aqliy qobiliyatlarni (konsentratsiya, ishonch, xavotirni nazorat qilish va boshqalar) uyg'unlashtirish orqali erishiladi.

Ruhiy salomatlikni aniqlash uchun bir qator omillar mavjud. Shulardan biri – insonlarning axborotni qayta ishlash tizimiga ta'sir ko'rsatadigan psixologik omillar, xususan, ego mudofaa mexanizmlaridir.

Erta bolalik davrida shakllanishi tufayli ushbu mexanizmlar keyinchalik hayot davomida axborotni qayta ishlash modeli sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ta'rifga ko'ra, mudofaa mexanizmlari – kognitiv dissonansni kamaytirish va tahdidli hodisalarni idrok etishga ta'sir ko'rsatish orqali ichki va tashqi voqealardagi keskin o'zgarishlarni minimallashtirishga xizmat qiluvchi avtomatik tartibga soluvchi jarayonlardir. Himoya mexanizmlari tashvish bilan kurashishda egoning ongsiz strategiyasi sifatida namoyon bo'lib, shaxsning o'zini himoya qilishiga xizmat qiladi hamda tuyg'ular va o'z-o'zini baholash bilan bog'liq jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

Sigmund Freud ta'kidlashicha, turli xil himoya mexanizmlaridan foydalanish chastotasi shaxsiyat, patologiya va moslashuv darajasini aniqlashda muhim o'zgaruvchidir.

Endryus va boshqalar George Eman Vaillantning mudofaa mexanizmlari haqidagi ierarxik tasnifiga asoslanib, 20 ta himoya mexanizmini uchta guruhga – yetuk, nevrotik va yetuk bo'lmagan mudofaa uslublariga ajratgan. Yetuk mudofaa mexanizmlari moslashuvchan va samarali deb baholanadi, nevrotik va yetuk bo'lmagan mexanizmlar esa disfunktsional hisoblanadi. Umuman olganda, himoya mexanizmlari hissiy oqibatlarni idrok etishni buzishi mumkin.

Uells va Metyusning fikriga ko'ra, mudofaa mexanizmlari hissiy tajribalarni diqqatni o'zgartirish orqali tartibga soladi va bezovta qiluvchi ma'lumotlarni ongli ravishda qayta ishlashga to'sqinlik qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xil stress omillari (masalan, xatolar, murabbiy yoki muxlislar bosimi), sportchilarning individual xususiyatlari (yoshi, tajribasi, xavotir darajasi, o'zini baholash va boshqalar) hamda sport turi stressni yengish strategiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, sport stressi bilan samarali kurasha olmaslik sportchining natijalari va shaxsiy qoniqishiga salbiy ta'sir qiladi.

Himoya mexanizmlari – yoqimsiz hissiy tarkibni ongdan chetlashtirishga xizmat qiluvchi psixologik jarayonlardir. Bunday hissiyotlarga tashvish, depressiya va g'azab kiradi. Ushbu hissiy holatlar ko'pincha shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlarida shakllanib, real hayotiy voqealar, tasavvurlar yoki ularning uyg'unlashuvi asosida yuzaga keladi. Oddiy odamlarda kuchli emotsional zo'riqish fikrlash, tashkil etish va diqqatni jamlash kabi aqliy funksiyalarni susaytiradi. Boshqacha aytganda, hissiyotlar ego funksiyalariga (xususan,



fikrlash, tashkil etish va diqqatni jamlashga) salbiy ta'sir ko'rsatganda zararli hisoblanadi. Sportchilarda himoya mexanizmlarining roli bo'yicha tadqiqotlar nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ularning stressni yengishdagi ahamiyati yuqoridir.¹

Sport psixologiyasi sohasida himoya mexanizmlariga yetarli e'tibor qaratilmagan. Nikolas va Jebrane tomonidan sportchilar ustida olib borilgan tadqiqotlarda mudofaa mexanizmlari sport ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishi hamda sport faoliyatidagi muammolar bilan kurashishda muhim omil ekanligi aniqlangan.

Shuningdek, yengish uslublari va mudofaa uslublari o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligi qayd etilgan. Bundan kelib chiqib, mudofaa uslublari psixologik salomatlik va sport muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Bunday tadqiqotlar sportda dinamik va ijobiy psixologiya yondashuvlarini uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Yosh sportchilarni tarbiyalash jarayoni murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, unda jamiyat qadriyatlari, sport muassasalari muhiti, murabbiy va o'qituvchilar salohiyati hamda oila omili muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, sport muhitida yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy moslashuv, raqobat sharoitida o'zini tutish va stressga bardoshlilik kabi jihatlari ham muhim ahamiyatga ega.

Psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan yosh sportchi shaxsining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ijtimoiy omillar – oilaning qo'llab-quvvatlashi, sport maktablari infratuzilmasi, murabbiylar malakasi, sport siyosatining barqarorligi;
- psixologik omillar – motivatsiya, o'z-o'zini baholash, raqobatbardoshlik, ruhiy tayyorgarlik;
- pedagogik omillar – ta'lim jarayonining mazmuni, tarbiyaviy metodika hamda o'qituvchi va sportchi o'rtasidagi muloqot madaniyati.

XULOSA

Bugungi kunda sportchilar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan pedagogika tamoyillari asosida faoliyat yuritish zarur. Bu yondashuv yosh sportchilarda o'z huquqlarini bilish, ularga amal qilish, boshqalarning huquqlariga hurmat bilan qarash kabi sifatlarni shakllantiradi. Shu ma'noda sport muhiti – bu huquqiy va axloqiy madaniyatni birlashtiruvchi ijtimoiy maktabdir.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sportchilar o'z faoliyatida ko'pincha tashqi bosim, natija kutilishi, stress holatlari bilan to'qnash keladilar. Shu bois ularni huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlari (masalan, shartnoma, mehnat shartlari, sog'lomlashtirish kafolatlari, tibbiy nazorat) bilan tanishtirish muhim tarbiyaviy vazifadir.

Bundan tashqari, yosh sportchilarni tarbiyalashda murabbiy-shogird munosabatlarining insonparvarlikka asoslanishi zarur. Ba'zan sport muassasalarida haddan ortiq talabchanlik yoki psixologik bosim holatlari kuzatiladi, bu esa shaxsning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik mexanizmni takomillashtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi, etika kodekslari, sport psixologiyasi markazlari faoliyatini kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. "Yoshlarni huquqiy tarbiyalash bo'yicha metodik qo'llanma". – Toshkent, 2020.
2. Pedagogik tadqiqotlar markazi. "Modulli ta'lim tizimi va interfaol metodlar qo'llanmasi". – Toshkent, 2021.
3. International Journal of Sports Science & Coaching. "Interactive Teaching Methods in Youth Sports Education". – London: Routledge, 2020.
4. Mirzaev T. "Sportchilarda huquqiy va ma'naviy kompetensiya shakllantirish". – Toshkent: Sport ilm-fan, 2022.
5. Islomov R. "Yoshlar tarbiyasi va axloqiy-ruhiy kamolot". – Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 2019.
6. Sultamuratov A. O. Sportchilarda psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Экономика и социум. – 2024. – № 2-1 (117). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sportchilarda-psixologik-himoya-mexanizmlarini-rivojlantirishning-ijtimoiy-psixologik-xususiyatlari>

1 Sultamuratov A.O. Sportchilarda psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari // Экономика и социум. 2024. №2-1 (117). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sportchilarda-psixologik-himoya-mexanizmlarini-rivojlantirishning-ijtimoiy-psixologik-xususiyatlari>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.